

O'RGANISH

*Mirabbos Firdavs o‘g‘li,
stajyor-o‘qituvchi., Obloberdiyev Oq‘abek, talaba.,
Buxoro muhandislik-texnalogiya instituti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ustun qoziq (svay)ni gruntga qoqilishini nazariy jixatdan o‘rganish uchun soddalashtirilgan gipoteza va mulohazalar o‘rganib chiqilgan. Taxmin yoki gipoteza bizga qoziqni gruntga qoqish jarayonini o

‘**Tayanch so‘zlar:** Ustun qoziq (svay), grunt, deformatsiya, deformatsiyalanuvchi qattiq jism, siljish deformatsiya, elastik-plastik muxit. elastik deformatsiya.

b

o Ko‘pchilik olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ustun qoziqni tuproqqa qoqish jarayoni murakkab dinamik jarayondir. Ustun qoziqni gruntga (erga) qoqish jarayonining dastlabki bosqichida, ko‘p hollarda, konus yoki piramidal deformatsiyalanadigan qattiq jismning grunt muhitiga kirib borishi jarayoni sodir bo‘ladi. Ustun qoziqni gruntga qoqilishning bu bosqichida, albatta, deformatsiyalanuvchi qattiq jismning siqilgan gruntga kirib borishining murakkab masalasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bundan tashqari, ustun qoziqni gruntga qoqilish masalasi bilan bir qatorda, qoziqning tuproq muhiti bilan o‘zaro ta’siri muammozi ham vujudga keladi. Bu masalalar to‘lqin dinamikasining murakkab, bir o‘lchovli va statsionar bo‘limgan masalasidir. O‘z-o‘zidan, tuproq muhitining yopishqoq, plastik xususiyatlarini va materialning deformatsiya xususiyatlarini hisobga olgan holda, deformatsiyalanadigan jismning tuproqqa kirib borishining nazariy masalasi kelib chiqadi va bu masala hozircha o‘rganilmagan. Bundan tashqari, ustun qoziqning grunt bilan o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, bir o‘lchovli bo‘limgan sharoitda deformatsiyalanuvchi jismlarning deformatsiyalanuvchi muhit bilan o‘zaro ta’siri

jarayonlari ham o‘rganilmagan. Ustun qoziqning gruntga qoqish jarayonining ushbu bosqichi tadqiqotchilarda alohida qiziqish uyg‘otadi. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda va ustun qoziqni gruntga qoqish jarayoni birinchi navbatda ilmiy ishdan ko‘ra ko‘proq texnik vazifa ekanligini hisobga olib, biz soddalashtirilgan usullardan foydalangan holda ushbu jarayonni nazariy jihatdan o‘rganishni ko‘rib chiqamiz. Buning uchun masalani shakllantirishni soddalashtiradigan ba’zi bir taxmin va farazlarni qabul qilish kerak. Tabiiyki, ustun qoziq gruntga qoqilish jarayonida nafaqat gruntning elastik xususiyatlari, balki yopishqoq, plastik xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi, shuningdek grunt strukturasini buzilishi ham sodir bo‘ladi. Shuning uchun ustun qoziqning peshonasi uchidagi qarshilik kuchini deformatsiyalanuvchi qattiq jismni elastik muhitga botirish masalasini yechishda topilgan formula asosida aniqlaymiz. Bu esa masalani soddalashtirishdagi birinchi farazidir. Bundan tashqari, ustun qoziqning konus uchini ma’lum bir chuqurlikka qoqilgandan so‘ng, ustun qoziqning yon sirti grunt bilan o‘zaro ta’sirda bo‘la boshlaydi. Bunday holda, ustun qoziqning tuproq bilan o‘zaro dinamik ta’siri sodir bo‘ladi. Ustun qoziqning tuproq bilan o‘zaro dinamik ta’siri natijasida ustun qoziq atrofida gruntning murakkab bir o‘lchovli bo‘limgan harakati sodir bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, ustun qoziq atrofida, ma’lum masofada tuproq zarralari harakatlana boshlaydi. Eksperimental tadqiqot [1] natijalari shuni ko‘rsatadiki, ustun qoziq atrofida faol harakatda ishtirok etuvchi grunt qatlamining qalinligi $2(0,5-1,5)R$ ni tashkil etadi. Bu yerda R - silindrsimon ustun qoziq (sterjen) radiusi. Bunday holda, ustun qoziq atrofidagi tuproq qatlamini buzilishi sodir bo‘ladi. Buzilgan tuproq qatlamining qalinligi, tajribalar [2] natijalariga ko‘ra, 1-3 sm.ni tashkil etadi. Ustun qoziq atrofidagi tuproq qatlami, ishqalanish kuchi ta’sirida ustun qoziq yon sirti yuzasi tuproq bilan, asosan, siljish deformatsiyasini hosil qiladi. Shu sababli, ustun qoziq yaqin zonasidagi gurundan, elastik bo‘limgan siljish deformatsiyasi grunt bo‘ylab tarqaladi. Biroq, nazariy tadqiqotlarda ushbu omillarning barchasini hisobga olish muammosi shakllantirishni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Shuning uchun, ustun qoziq atrofida grunt qatlamini harakati mavjudligini hisobga olsak, ustun

qoziq gruntga qoqliganda, yanada sezilarli harakat qiladi va faqat shu tuproq qatlaming harakati ustun qoziqni qoqlish chuqurligiga sezilarli ta'sir qiladi deb taxmin qilamiz va harakatlanayotgan grunt zonasidan tashqarisidagi grunt, ustun qoziqning gruntga qoqlish chuqurligiga ta'sir qilmaydi deb tasovur qilamiz. Ikkinchi taxmin biz qaralayotgan masalani gilza (vtulka) bilan sterjenning o'zaro ta'siri masalasi sifatida qarashga imkon beradi. Ya'ni, qoziqni yerga qoqish jarayoni gilzadagi sterjenning harakatlanishi deb hisoblanadi. Oxirgi muammo L.V.Nikitin [3-7] asarlarida bir o'lchovli formulada yetarlicha batafsil o'r ganilgan. Muammoning ko'rib chiqilayotgan bir o'lchovli bayoni qoziq atrofidagi tuproq qatlamida tekis kesimlar gipotezasi bajarilgan deb taxmin qilish imkonini beradi. Biroq, [3] ishdan farqli o'laroq, bu yerda ustun qoziq yerga qoqlish jarayoni ustun qoziqning yon sirti yuzasi grunt (tuproq) bilan o'zaro ta'siri o'zgaruvchan bo'ladi, chunki qoziqning gruntga qoqlish chuqurligi doimo oshib boradi. Bundan tashqari, qoziq gruntga qoqliganda, qoziq va grunt o'rtasidagi o'zaro ta'sir kuchining tabiatini L.V.Nikitin asarlarida qabul qilingan Kulon quruq ishqalanish qonuniga qaraganda ancha murakkabroqdir. Shunday qilib, ustun qoziqni gruntga qoqlishining dinamik jarayoni, bir o'lchovli deformatsiyalanadigan sterjenning harakatlanishi boshqa gilzadagi (tuproq qatlami) deformatsiyalanadigan sterjen harakatining bir o'lchovli masalasiga olib kelinadi. Bunday holda, ichki sterjen qoziq, tashqi sterjen esa tuproq qatlamidir. Ichki sterjen - qoziqlarni ko'chirishda uning tashqi sterjenda - tuproq bilan aloqa yuzasining uzunligi o'zgaruvchan qiymatdir.

Yuqoridagi taxminlar tufayli muammoni quyidagicha shakllantirish mumkin bo'ladi, ya'ni:

1. Qoziqlar ustidagi frontal qarshiligi konusning tuproq muhitiga kirib borishining bir o'lchovli bo'limgan elastik-plastik masalasini yechimi orqali aniqlanadi.
2. Butun tuproq massivi emas, balki faqat qoziq atrofidagi ba'zi tuproq qatlaming harakati hisobga olinadi.

3. Tekis kesimlar haqidagi gipoteza qoziq tuproq qatlami bilan o‘zaro ta’sirlashganda amalga oshadi, ya’ni qoziqning o‘zi ham, uning atrofidagi tuproq qatlamining harakati ham bir o‘lchovli bo‘lib qoladi, deb hisoblanadi. Oxirgi taxmin yoki gipoteza bizga qoziqni gruntga qoqish jarayonini bir o‘lchovli masala sifatida qarash imkonni beradi. Bu esa ustun qoziqni gruntga qoqlish jarayonni nazariy jixatdan o‘rganishdagi dastlabki, bиринчи qadam bo‘lib, ustun qoziqni gruntga qoqishning texnik masalasini hal qilish imkoniyatini beradi. Ustun qoziqni gruntga qoqishning bir o‘lchovli bo‘lmagan masalasini hal qilish kelajakning istiqbolli masalasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

irdavs o‘g’li, S. M. (2024). BINO VA INSHOOTLARNI QURISHDA

irdavs o‘g’li, S. M. (2024). YAXLIT QUYMA BINOLAR TURLI KONSTRUKSIYALARINI BARPO QILISHDA BETON IShLARI S

А Firdavs o‘g’li, S. M. (2024). YENGIL BETONLAR TARKIBI. *Scientific Mpulse*, 2(21), 884-887.

Аdavs o‘g’li, S. M. (2024). O ‘ZBEKISTON HUDUDIDA MONOLIT REMIRBETON KONSTRUKSIYALARINDAN TIKLANADIGAN BINOLARDА А

Бупов, Р. Р., & Салимов, М. Ф. (2023). ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖАРАЁНИДА КОМПЛЕКС КОНСТРУКСИЯЛИ БИНОНИНГ ҒИШТ ТЕРМАНИНГ Р

Бупов, Р. Р., & Салимов, М. Ф. (2023). ЭКСПЛУАТАЦИЯ ЖАРАЁНИДАГИ ШЕХНИК ҲОЛАТИНИ ТЕКШИРИШ ВА КОМПЛЕКС КОНСТРУКСИЯЛИ ЖАМОАТ БИНОСИНИНГ ҒИШТ ТЕРМАНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИНИ Ў

Н

И

К
Выпуск журнала №-14

и

{ } Часть-2 Ноябрь -2024

и